

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 24 avgust sanasidagi savdo yakunlari

// 24.08.2021

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/birja20210824>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2021 yil 24 avgust sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 24 avgust kuni "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali 6445 tonna 18376,8 mln. so'mlik mineral o'g'itlar sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich past bo'lgan ya'ni 23 avgust kuni 5918 mln. so'mlik 5918 tonna mineral o'g'itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammofos, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan ammofos eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 52,0 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoxlorid, kaltsinatsiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi. 24 avgust kuni jami 19523,4 mln. so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlar sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich past bo'lgan, ya'ni 23 avgust kuni 8229,3 mln. so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlari sotilgan. Sotuvning asosiy qismini ya'ni 80,4 foizini PVX mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zkimyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosi bo'yicha barcha ma'lumotlarni www.uzkimyosanoat.uz rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkimyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkimyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati